

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMDA "KVEST USULI" QO'LLASH

Nurmamatov Abduqodir Abduqaxxor o'g'li

"Informatsion texnologiyalar" kafedrasida assistent o'qituvchisi, NamMTI

E-mail: abduqodirnurmamatov1995@gmail.com

ANNOTATSIYA

Bu usul jamoa bo'lib o'ynaladi va shuning uchun ham bolalar tomonidan iliq qarshi olinadi. Ayni usulda mashg'ulot olib borish uchun tarbiyachidan artistlik mahorati, ijodkorlik talab etiladi. Chunki bu usulda shunchaki, nomigagina qilingan o'yin tarbiyalanuvchilarni qiziqтира olmaydi.

ABSTRACT

This method is played as a team and therefore is warmly received by children. Artistic skills and creativity are required from the educator to conduct training in this way. Because in this method, a game made just for the sake of it cannot interest the students.

АННОТАЦИЯ

В этот метод играют в команде, и поэтому он тепло воспринимается детьми. Для проведения обучения таким способом от педагога требуются художественные навыки и творческие способности. Потому что при таком методе игра, созданная просто так, не может заинтересовать учащихся.

Kvest inglizchadan tarjima qilinganda sarguzasht degan ma'noni bildirib, o'yin mashg'uloti mobaynida turli qiyinchliklardan chiqishni o'rgatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bu usul jamoa bo'lib o'ynaladi va shuning uchun ham bolalar tomonidan iliq qarshi olinadi. Ayni usulda mashg'ulot olib borish uchun tarbiyachidan artistlik mahorati, ijodkorlik talab etiladi. Chunki bu usulda shunchaki, nomigagina qilingan o'yin tarbiyalanuvchilarni qiziqтира olmaydi. Aynan tarbiyachi bolalarga qiyin savollar topadi, ularni mushkul vaziyatlarga solib qo'yadi va oxir oqibat har bir bolani mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Kvest usulining asosiy vazifalari:

Bolalarda atrof olamga nisbatan qiziqish uyg'otish

Bolalarni yangiliklardan o'yin shaklida xabardor etish

Har bir tarbiyalanuvchining o'zini namoyon qilishiga imkon yaratib berish

Do'stona muhitni yaratish va boshqalarni his qila olish tuyg'usini rivojlantirish.

Tadqiqotchilik va mustaqil fikrlashga o'rgatish.

Ushbu usulning foydali tomonlari:

Bola rejalashtirish va tahlil qilishga o'rganadi

Jamo bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'ladi

Maqsad sari qat'iy harakat qilish ishtiyoqi kuchayadi

O'yinlar jarayonida u kuzatuvchidan ishtirokchiga aylanadi va uning ilgari ochilmagan qirralari paydo bo'ladi.

Quyida Kvest usulida o'ynash mumkin bo'lgan o'yinlardan namunalari keltiramiz.

Sirli xat - Tarbiyachi guruhga sirli xat tashlab ketilganligini ammo uni o'qish uchun avval ikkita topshiriqni bajarish zarurligini aytadi. Birinchi topshiriq meva va sabzavotlar haqidagi krossvordni yechish. Krossvordni o'n daqiqa mobaynida yechish kerak. Krossvord yechilgandan keyin tarbiyachi uning xatosi yo'qligini tekshiradi va ikkinchi shartga o'tadi. Ikkinchi shartda esa bolalar tarbiyachi aytgan harf bilan boshlanadigan so'z topishlari kerak. Masalan, "S" harfi. Bolalarning har biri to'xtamasdan shu harf bilan boshlanadigan so'zni topa olishlari kerak. Agar kimdir to'xtab qolsa, o'yin boshqatdan boshlanadi. Bu jarayon bolalarni birlashtiradi, bir maqsad sari qat'iy harakat qilishga undaydi. Ikkita shart ham bajarilgach, tarbiyachi sirli xatdagi quvnoq she'rni o'qib tarbiyalanuvchilar quvonchiga sabab bo'ladi.

Pazllar - Bunda tarbiyachi avvaldan tayyorlangan va bo'laklarga bo'lingan mevalarning suratini bolalarga beradi. Ular aralashib ketgan bo'laklarni to'g'ri birlashtirishlari vayig'ilgan suratdan hosil bo'lgan meva nomini va unga ta'rif ayta olishlari kerak. Masalan, olma, u qizil va yashil rangda bo'ladi. U vitaminlarga boy meva hisoblanadi, odatda shirin va nordon olmalar uchraydi.

O'zing izla - Har bir surat orqasiga raqam qo'yiladi. Bolalarning vazifasi raqamlarni ketma-ketlikda to'g'ri joylashtirib ular ortiga yashiringan maqol yoki tez aytishni topishdan iborat.

Teskarisini ayt - Bu o'yinda bolalar ikki guruhga bo'linadilar. Tarbiyachi bitta so'z o'qiydi, bolalar o'sha so'zning qarama-qarshi ma'nolisini topishlari kerak. Masalan, kulmoq – yig'lamoq, yarashmoq – urushmoq, ochmoq – yopmoq kabi. Qaysi guruh besh soniya ichida javob berolmasa o'sha ishtirokchi o'yinni tark etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent, 1997.
2. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». Toshkent, 1997.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993-y.
4. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. Toshkent, 1996-y.

5. Abu Rayhon Beruniy. Hikmatlar. Toshkent:
6. J.Tulenov, Z.G'ofurov. Falsafa. T.: « O 'qituvchi». 1997-y.
7. P.A.Mavlonova, B.Normurodova, N.Rahmonqulova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. T.: «Fan», 2007.
8. J.YoMdoshev va F.YoMdosheva, G.YoMdosheva. Interfaol ta'lim sifat kafolati. T., 2009. 452
9. J.Hasanboyev, H.Sariboyev, G.Niyozov, O.Hasanboyeva, M.Usmonboyeva. Pedagogika. O 'quv qo'llanma. T.: «Fan». 2006-y.
10. .N.Azizxo'jayeva. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya, Toshkent. 11. A.Minovarov. Pedagogika. T.: « O 'qituvchi», 1996-y.
12. M.Inomova. Oilada bolalaming ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. T., 1999-y.
13. R.Mavlonova, N.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., 2009-y.
14. R.Mavlonova, N.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'lim innovatsiyasi. T., 2007-y.
15. A. To'xtayev. Ekologiya. T.: « O 'qituvchi», 1998-y.
16. www.pedagog.uz.
17. www.ziyonet.uz.